
AJRIMLARNING OLDINI OLISH CHORALARI KO'RILMOQDA

Toshloq tumani hokimligining majlislar zalida mahallalardagi faol xotin-qizlar, tuman maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari hamda huquq-tartibot idoralari mas'ul vakillari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda viloyat hokimi o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Komila Kavlonova so'zga chiqib, joriy yilning 11 oyi davomida tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi tomonidan oilaviy ajrimlarning oldini olish va sodir etilgan huquqbuzarliklar holatiga tahliliy-tanqidiy munosabat bildirdi.

Shuningdek, viloyat Ichki ishlar boshqarmasining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari Dilshoda O'rinova tizimda olib borilayotgan ishlarga baho berar ekan, xotin-qizlar faollari hamda huquq-tartibot idoralari vakillari hamkorlikda faoliyat olib borsalar, kutilgan ijobiy natijaga erishish mumkinligini ta'kidlab o'tdi.

Yig'ilishda ko'rilgan barcha masalalar yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilab olindi

2022-12-18 18:03:32